

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI UMUMIY VA  
NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**AXMEDOV BAXTIYOR BOXODIR O‘G‘LI**

**RUX, MIS, ATSETAMIPRID ASOSIDAGI INSEKTITSID XOSSASIGA  
EGA BO‘LGAN FIZIOLOGIK FAOL MODDALARNING TEZKOR  
NAZORAT USULLARI VA OLINISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB  
CHIQISH**

**02.00.02 – Analitik kimyo**

**02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

UO‘K: 543.3. 543.554.6  
541.123+661.44

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктор философии (PhD)  
по химическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation doctor of philosophy (PhD)  
in chemical sciences**

**Axmedov Baxtiyor Boxodir o‘g‘li**

Rux, mis, atsetamiprid asosidagi insektitsid xossasiga ega bo‘lgan fiziologik faol moddalarning tezkor nazorat usullari va olinish texnologiyasini ishlab chiqish ..... 3

**Ахмедов Бахтиёр Боходир угли**

Разработка методов оперативного контроля и технологии получения физиологически активных веществ с инсектицидными свойствами на основе цинка, меди, ацетамиприда ..... 21

**Akhmedov Bakhtiyor Bokhodir ugli**

Development of rapid control methods and synthesis technology of physiologically active substances with insecticidal properties based on zinc, copper ..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 43

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.K.02.05  
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI UMUMIY VA  
NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**AXMEDOV BAXTIYOR BOXODIR O‘G‘LI**

**RUX, MIS, ATSETAMIPRID ASOSIDAGI INSEKTITSID XOSSASIGA  
EGA BO‘LGAN FIZIOLOGIK FAOL MODDALARNING TEZKOR  
NAZORAT USULLARI VA OLINISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB  
CHIQISH**

**02.00.02 – Analitik kimyo**

**02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/K759 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida va Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbarlar:**

**Abduraxmanov Ilhom Ergashboyevich**  
kimyo fanlari doktori, dotsent

**Shukurov Jamshid Sultonovich**  
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Rasmiy oponentlar:**

**Tog'asharov Axat Salimovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rahmatov Xudoyor Boboniyozovich**  
kimyo fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.K.02.05 bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil «30» oktabr soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Biokimyo instituti, Kimyo binosi. Tel.: (+99866) 239-12-47, faks: (0366) 239-11-40, e-mail: [devonxona@samdu.uz](mailto:devonxona@samdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (95 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «14» oktabr kuni tarqatildi.  
(2024-yil «14» oktabr dagi № 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



**A.M.Nasimov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**J.R.Uzoqov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, k.f.f.d., (PhD)

**E.Abduraxmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi.** Dunyoda ko‘p sonli aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda - yer yuzida iqlim o‘zgarishi bois yuzaga kelayotgan suv tanqisligi, qurg‘oqchilik, turli zararkunandalarning ko‘payishi kabi holatlar qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishda bir vaqtning o‘zida fiziologik faol, oziqlantiruvchi va insektitsid hususiyatiga ega bo‘lgan, tarkibida mikroelement saqlagan yangi turdagi preparatlarni qo‘llash alohida o‘rin tutadi. Bu o‘rinda, rux, mis mikroelementlari va ozuqa moddalaridan iborat insektitsid xossasiga ega bo‘lgan yangi turdagi fiziologik faol preparatlarni olish, hamda ular tarkibidagi rux va mis ionlarini intensiv aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yetakchi ilmiy markazlar tomonidan yangi turdagi stimulyatorlar, insektitsidlar va o‘g‘itlar olishning samarali usulini ishlab chiqish, hamda noorganik ionlarning ISE uchun yuqori samarali elektrod faol birikmalarini (EFB) yaratish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, takribida rux va mis mikroelementlaridan iborat, insektitsid xossasiga ega bo‘lgan fiziologik faol preparatlarni olinish texnologiyasini ishlab chiqish, ularni qishloq xo‘jaligi ekinlarida samaradorligini aniqlash, hamda yuqori aniqlik va sezuvchanlikka ega, eritmada ionlarning juda kichik konsentratsiyalarida signal bera oladigan, keng pH oralig‘ida ham ishlay oladigan ion selektiv elektrodlar ishlab chiqish va ion-selektiv plastifitstirlangan membranali mis, rux metallarining ion-selektiv elektrodlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda stimulyatorlar va insektitsid xossasiga ega bo‘lgan defoliantlarni olish va ularni samarali qo‘llash, hamda eritma tarkibidagi metal kationlarini aniqlash borasida muayyan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, “Hosil”, “Najot”, “Madad” stimulyatori, hamda fosformolibdenli ionselektiv elektrodarni alohida ta‘kidlash mumkin. O‘zbekiston Respublikasining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni 22-maqсадida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan...”<sup>1</sup> muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, tarkibida rux va mis mikroelementlaridan iborat insektitsid xossasiga ega bo‘lgan fiziologik faol preparatlarni olish va eritma tarkibidagi metal ionlarini aniqlashda yangi elektrod turlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmonida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish” va 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-sonli “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda, mazkur

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni

faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII “Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq holda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ilmiy adabiyotlarda noorganik va organik moddalar asosida o‘g‘itlar, stimulyatorlar va insektitsid xossaga ega bo‘lgan defoliantlar olish, ularni qo‘llanilishi bo‘yicha ma’lumotlar keng yoritilgan. Respublikamiz olimlari: M.N.Nabiyev, S.Tuxtayev, X. Kucharov, M.K. Askarova, Z. Isabayev, A.S. Tog‘asharov, J.S.Shukurov tomonidan eruvchanlik sistemalarida komponentlarni o‘zaro ta’sirlashuvi bo‘yicha, dunyo olimlari: Ch.S. Wulyams, J.C. Suttle (AQSH), F.R.H. Katterman (AQSH), W.C. Hall (Angliya) kabi olimlar organik moddalar asosida preparatlar olish va ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borgan.

Chiqindi va oqova suvlar tarkibidan ionlarni aniqlashning xromatografik, elektrokimyoviy va spektrofotometrik usullari jahonning yetakchi olimlari S.I. Merenbloom (AQSh), L. Satyanarayana (Hindiston), Y. Zhao (Xitoy), N. Abramova (Rossiya), S. Levichev (Rossiya), A.A. Sathyapalan (Hindiston), F. Mizani (Hindiston), F. Rajabi (AQSh), E.M. Raxmanko (Belarus), Y.V. Matveychuk (Rossiya), V.V. Yegorov (Rossiya), S. Hiroaki (Yaponiya) va E.B. Okayev (Belarus) lar tomonidan taklif etilgan. Respublikamiz olimlari T.Q.Xamroqulov, Sh.T.Talipov, A.M.Nasimov, A.M.Gevorgyan, Z.A.Smanova va boshqalar suyuq gazsimon sanoat chiqindilari tarkibiy qismlarining monitoringi uchun datchiklar yaratish va analiz usullari ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Olimlar tomonidan rux va mis mikroelementlaridan iborat insektitsid xossasiga ega bo‘lgan fiziologik faol moddalar sintezi va ular asosida preparatlar olish, eritma tarkibidagi rux va mis kationlarini aniqlashda selektiv elektrodlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Bajarilgan dissertatsiya ishi rux va mis mikroelementlari asosida insektitsid xossasiga ega bo‘lgan fiziologik faol preparatlar ishlab chiqishga va eritma tarkibidagi  $Zn^{2+}$ ,  $Cu^{2+}$  ionlarini aniqlash elektrodlarni yaratish kabi nazariy va amaliy muammolarni hal qilish imkonini yaratadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqodlari Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170926386 “Mahalliy xom ashyo asosida kompleks ta’sir etuvchi, samaradorli defoliant sintezi va olinish texnologiyasini ilmiy asoslarini ishlab chiqish” mavzudagi amaliy loyiha (2018-2020 yy.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** rux va mis ionlarini aniqlashda ion selektiv elektrodlarni yaratish, hamda tarkibida rux va mis mikroelementlaridan iborat insektitsid xossasiga ega bo‘lgan fiziologik faol moddalar sintezi va ular asosida preparatlar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

rux, mis tuzalari va natriy tetrafenil borat asosida elektrod faol birikmalar sintez qilish hamda ular asosida yuqori sezgir ion selektiv elektrodning asosiy komponenti bo'lgan membranalar kompozitsiyalarini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan membranalar asosida rux, mis ion selektiv elektrodlarini yaratish va ushbu elektrodning signal uzatish qobiliyatini konsentratsiyaga bog'liq holda aniqlash;

eritmalarda  $Zn^{2+}$  va  $Cu^{2+}$  ionlari uchun selektiv bo'lgan ion selektiv elektrodning elektrokimyoviy ko'rsatkichlarini baholash (elektrod funksiyasining intervali, elektrod funksiyasining qiyligi, potensial aniqlovchi ionni aniqlash chegarasi, selektivlik koeffitsiyenti, ion selektiv elektrod signalining dinamikasi);

oksalat kislota, oksalat monoetanolammoniy, fosfat karbamidmonoetanolammoniy, nitrat karbamidmonoetanolammoniy, 2-xlor etilfosfonatmonoetanolammoniy, rux kuporos, mis kuporos, atsetamiprid va etanollardan iborat komponentlarning o'zaro ta'sirlashuvini suvli sistemlarda keng harorat va konsentratsiya oralig'ida o'rganish;

[10%  $C_{10}H_{11}ClN_4$  + 90%  $C_2H_5OH$ ] suvdan iborat binar sistemasini o'rganish va fazalarni NMR spektroskopiya usulida aniqlash, shuningdek eruvchanlik diagrammalarida hosil bo'lgan fazalarni ajratish, tarkibini aniqlash, ularni mavjudligini kimyoviy va fizik-kimyoviy usullar yordamida tasdiqlash;

nitrat karbamidmonoetanolammoniy, oksalat monoetanolammoniy, mis kuporos, rux kuporos, atsetamiprid va etanol komponentlarning turli nisbatida eritmaning fizik-kimyoviy xossalari – zichligi, qovushqoqligi, sindirish ko'rsatkichi va pH muhitini o'rganish va «tarkib-xossa» diagrammalarini qurish, hamda insektitsid xossasiga ega bo'lgan fiziologik faol moddalarni maqbul tarkiblarini aniqlash, moddiy balansini tuzish, texnologik sxemasini taklif etib, tajriba namunalarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida natriy tetrafenil borat, mis (II) xlorid, karbamid, oksalat kislota, fosfat kislota, nitrat kislota, mis kuporos, rux kuporos, atsetamiprid, etanol va monoetanolaminlar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** tarkibida rux, mis mikroelementlaridan iborat, insektitsid xossasiga ega bo'lgan fiziologik faol preparatlarni ishlab chiqish, hamda rux va mis ionlarini aniqlashda ion selektiv elektrodning yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida kuzatuv-politermik, termik, IQ spektroskopik, rentgenfazali, piknometrik, eritma qovushqoqligi vizkozimetr VPI da, pH ko'rsatkichlari Mettler Toledo FE 20/ FG2 pH metrda va nur sindirish ko'rsatkichi PAL-BX/RI ATAGO refraktometr usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

rux, mis tuzlari va tetrafenilborat asosida elektrod-faol birikma (EFB) sintez qilingan va ularning mavjudligi fizik-kimyoviy usullar yordamida tasdiqlangan, hamda sintez qilib olingan yangi moddalar asosida rux, mis selektiv elektrodlar yaratish uchun zarur bo'lgan turli o'lchamdagi membranalar ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan membranalar orasidan, yuqori sezgirlikga ega bo'lgan membrananing maqbuli tanlangan va suvli eritmada rux, mis ionlarini  $10^{-1}$ - $10^{-5}$  mol/l konsentratsiya oralig'ida aniqlay oladigan sezgir va selektiv elektrodlar yaratilgan;

yaratilgan elektrodning elektrod funksiyasining intervali va qiyaligi, potensial aniqlovchi ionni aniqlash chegarasi, selektivlik koeffitsiyenti, ion selektiv elektrod (ISE) signalining dinamikasi kabi qator elektrokimyoviy sifat ko'rsatkichlari aniqlangan;

ilk bor tarkibida suv, mis kuporos, rux kuporos, oksalat kislota, karbamid, oksalat monoetanolammoniy, fosfat karbamidmonoetanolammoniy, nitrat karbamidmonoetanolammoniy, atsetamiprid va etanollar ishtirokida 16 ta eruvchanlik sistemalari va "tarkib-xossa" diagrammalari yaratilgan;

diagrammalarda hosil bo'lgan yangi fazalar atsetamipridning, oksalat karbamidning va oksalat karbamidmonoetanolammoniyning kristallanish maydonlari chegaralari aniqlangan, hamda mavjudligi zamonaviy fizik-kimyoviy taxlil usullari yordamida isbotlangan;

rux va mis mikroelementlari, atsetamiprid va fiziologik faol moddalar asosida, maqbul preparat tarkiblari va olinish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

suvli eritmalarda rux va mis ionlarini aniqlay oladigan yangi ion selektiv elektrodlar yaratilgan va sanoat chiqindi suvlarida sinovdan o'tkazilgan;

ishlab chiqilgan ion selektiv elektrodning aniqlash xatosi 5% dan oshmasligi isbotlangan;

fosfat karbamidmonoetanolammoniy, nitrat karbamidmonoetanolammoniy, 2-xlor etilfosfonatmonoetanolammoniy va asetamiprid, natriy xlorat eritmasi tarkibiga kiritilgan va qishloq xo'jaligi fermer xo'jaliklarida keng dala maydonlarida agrokimyoviy sinovlardan o'tkazilib, go'zada preparatlarni qo'llash tavsiyalari ishlab chiqilgan;

rux kuporos, mis kuporos, nitrat karbamidmonoetanolammoniy, atsetamiprid, etanol asosida yangi preparatlar olishning texnologik sxemasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Matematik statistik, kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil usullari natijalari, hamda taklif etilgan preparatlarni laboratoriya tajriba qurilmalarida sinovdan o'tganligi va qishloq xo'jaligida agrokimyoviy sinovdan o'tkazilganligi bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ilk bor oksalat kislota, karbamid, oksalat monoetanolammoniy, fosfat karbamidmonoetanolammoniy, nitrat karbamidmonoetanolammoniy, mis kuporos, rux kuporos, atsetamiprid va etanoldan iborat komponentlarning o'zaro ta'sirlashuvi bo'yicha 9 ta suvli sistemalari o'rganilgan va hosil bo'lgan fazalarning tarkibi aniqlangan, hamda  $Zn^{2+}$ ,  $Cu^{2+}$  ionlarini aniqlash imkonini beruvchi selektiv elektrodni yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati eritmada  $Zn^{2+}$  va  $Cu^{2+}$  ionlarini aniqlay oladigan selektiv elektrodlar, hamda rux va mis mikroelementlaridan iborat insektitsid xossasiga ega bo'lgan fiziologik faol preparatlarning olinish texnologiyasi ishlab chiqildi, maqbul texnologik ko'rsatkichlari aniqlandi, shuningdek ushbu ma'lumotlar kimyo va kimyo-texnologiya talabalari uchun amaliy qo'llanma sifatida foydalanishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mis xlorid, rux sulfat, natriy tetrafenil boratdan, mis selektiv va rux selektiv elektrodlar ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

eritmada mis kationini aniqlash imkoniyatiga ega ion-selektiv elektrod "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" AJning ekologik laboratoriyasida amaliyotga joriy etilgan (Muborak gazni qayta ishlash zavodi" AJ ning 2024 yil 15 maydagi 282/GK-05 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sanoat chiqindi suvlarida  $Cu^{2+}$  kationini miqdorini, yuqori sezgirlik va selektivlik bilan aniqlash imkonini beradi;

rux kationini aniqlash imkoniyatiga ega ion-selektiv elektrod "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" AJning ekologik laboratoriyasida amaliyotga joriy etilgan (Muborak gazni qayta ishlash zavodi" AJ ning 2024 yil 15 maydagi 282/GK-05 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sanoat chiqindi suvlarida  $Zn^{2+}$  kationini miqdorini, yuqori sezgirlik va selektivlik bilan aniqlash imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan 182 nomdagi adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etib, 62 ta rasm va 32 ta jadvallardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va muhimligi asoslangan, maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Fiziologik faol moddalar va insektitsidlarning olinish usullari va xossalari. Ion selektiv elektrod turlari va ularga qo'yilgan talablar**» deb nomlangan birinchi bobida ion selektiv elektrodlar va ularning turlari, shuningdek ion selektiv elektrodni tayyorlashda plastifikatorlar va lipofil qo'shimchalar tasiri bo'yicha olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. O'simliklar fiziologiyasiga fitogormonlarning tasiri, hamda fiziologik faol moddalar va insektitsidlarning olinishi, komponentlarning o'rganilgan eruvchanlik sistemalari tahlillari haqida adabiyot ma'lumotlari keltirilgan.

Adabiyotlarni chuqur tahlil qilish asosida ushbu dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o‘tkazish usullari va obektlarning xususiyatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlari, nitrat kislota, fosfat kislota, oksalat kislota va ularning karbamidli birikmalari, hamda monoetanolaminli tuzlari xaqida ma’lumotlar keltirilgan. Dastlabki moddalar va yangi kimyoviy birikmalarning sintez usullari, xossalari va tarkibini kimyoviy, fizik-kimyoviy usullar yordamida olingan tahlil natijalari, shuningdek tadqiqot o‘tkazishda fizik-kimyoviy va kimyoviy tahlil usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Jumladan, nitrat karbamid va monoetanolamin o‘zaro 1:1 mol nisbatda muntazam aralashirish yo‘li bilan 20-25°C haroratda sovutib borish taritibida nitrat karbamidmonoetanolammoniy  $[H_5CN_3O_4]^- \cdot [HOCH_2CH_2NH_2]^+$  sintez qilib olindi va ularning tuzilishi IQ-spektr 1-rasm, termik va rentgenfazali tahlil usullari yordamida aniqlandi.



**1-rasm. IQ-spektrlar: A – nitrat karbamid, B - monoetanolamin, C- nitrat karbamidmonoetanolammoniy**

Dissertatsiyaning «**Rux va mis ionlarini aniqlovchi ion selektiv elektrodlarni ishlab chiqish va ularning elektrokimyoviy ko‘rsatkichlarini aniqlash**» deb nomlangan uchunchi bobida eritmada mis va rux ionlarini aniqlashda elektrod faol birikmalar sintez jarayonlari o‘rganilgan va tarkibi fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida tekshirilgan. Shuningdek, ishlab chiqilgan elektrodlarning qator elektrokimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlangan va baholangan.

Dastlab  $Zn[B(C_6H_5)_4]_2$  va  $Cu[B(C_6H_5)_4]_2$  tarkibli elektrod-faol birikmalar sintez qilib olindi. Sintez jarayonida dastlabki komponentlarning 0.1 M li eritmalaridan foydalanildi (1-jadval).

**1-jadval**

**Elektrofaol birikmalar sintezi uchun zarur komponentlar miqdori**


№	Dastlabki moddalar miqdori, gr		Hosil bo'lgan modda miqdori, gr
1	$ZnSO_4$	$(Na[B(C_6H_5)_4])$	$Zn[B(C_6H_5)_4]_2$
	2.291	9.7297	10
2	$CuCl_2$	$(Na[B(C_6H_5)_4])$	$Cu[B(C_6H_5)_4]_2$
	1.923	9.7435	10

Sintez qilingan  $Zn[B(C_6H_5)_4]_2$  va  $Cu[B(C_6H_5)_4]_2$  tarkibli EFB larning kimyoviy (2-jadval), fizik-kimyoviy usullar yodamida mavjudligi tasdiqlangan (2 va 3 – rasmlar).


**2-jadval**

**Sintez qilingan elektrofaol moddalarning elementar tarkibini aniqlash natijalari**

Komponentlar miqdori	Komponentlar			
	Metall	Bor	Uglerod	Vodorod
$Zn[B(C_6H_5)_4]_2$				
Hisoblangan, %	9.29	3.07	81.92	5.72
Topilgan, %	9.62	2.97	82.04	5.37
$Cu[B(C_6H_5)_4]_2$				
Hisoblangan, %	9.06	3.08	82.12	5.74
Topilgan, %	8.92	2.99	82.16	5.93



**2-rasm.  $Zn[B(C_6H_5)_4]_2$  tarkibli EFBning energiya dispersli rentgen-flyuoressent spektri**



**3-rasm.  $\text{Cu}[\text{B}(\text{C}_6\text{H}_5)_4]_2$  tarkibli EFB ning IQ spektri**


EFB ning rentgen-flyuoesent analizi Rigaku NEX-DE spektrometrida, IQ analizi esa Perkin Elmer Spectrum IR (Versiya 10.7.2) IQ qurilmasida amalga oshirilgan.

*Cu*, *Zn* ionlarining ion selektiv elektrodi (ISE) uchun membrana kompozitsiyalarini ishlab chiqish va oʻrganish. Mis (II) xlorid, rux sulfat va natriy tetrafenilborat asosida mis (II) tetrafenilborat va rux tetrafenilborat elektrodfaol birikmalari sintez qilib olindi va ionofor sifatida foydalanildi. Plastifitsirlangan ISE plynkali membranalarni tayyorlashda - tetragidrofuranda polivinil xlorid (PVX), plastifikator (dioktil ftalat) va elektrodfaol birikmalar (mis (II) tetrafenilborat va rux tetrafenilborat) eritilib, magnitli aralashtirish qurilmasida doimiy aralashtirish yoʻli bilan olib borildi. Olingan eritma tarkibidagi TGF xona haroratida 24 soat davomida toʻliq bugʻlatildi va 0,3-0,5 mm qalinlikdagi elastik shaffof membrana hosil qilindi. Olingan plynka tarkibida - EFB 5%, PVX kukuni - 32%, plastifikator -63% dan iborat.

Membrana diametri 7-10 mm boʻlgan doira shaklda kesilib, diametri 5 mm, uzunligi 80-100 mm PVX nayning uchiga joylashtirildi, soʻng nayga aniqlanadigan ion tuzining 0,1 M suvli eritmasi quyildi va ichki elektrod sifatida kumush xloridli elektrod silikon surtma bilan PVX li naychaga oʻrnatildi. Har bir membranadan rux ion selektiv va mis ion selektiv elektrodlar ishlab chiqildi.

ISE ning asosiy elektrokimyoviy koʻrsatkichlari elektrod funksiyasining intervali, elektrod funksiyasining qiyaligi, potensial aniqlovchi ionni aniqlash chegarasi, selektivlik koeffitsiyenti va ISE signalining dinamikasi (javob vaqti) aniqlandi.


**Elektrod funksiyasining bajarilish intervali** – mis va zux ion selektiv elektrodlar signalining eritmadagi aniqlanadigan ion konsentratsiyasiga bogʻliqligi oʻrganildi 4-rasm.



**4-rasm. Rux va mis ionlarini aniqlovchi  $Zn^{2+}$ -TFB va  $Cu^{2+}$ -TFB asosida ishlab chiqilgan ISE ning elektrod funksiyasining bajarilish intervali**

Tadqiqotlar jarayonida Cu-ISE uchun elektrod funksiyasining bajarilish intervali pC ning qiymati 4.80 mol/l ga tengligi aniqlandi, bu esa 1 litr eritmada 0.00001584 mol yoki 0.00101376gr (yoki  $10^{-4}$  %, 1000 gr eritmaga nisbatan) mis ioni bo'lgan eritmada  $Cu^{2+}$  ionini aniqlash imkoniyatini beradi. Zn-ISE uchun pC=4.71 mol/l ga teng ekanligi qayd qilingan. Bu esa ushbu elektrod yordamida  $1.95 \times 10^{-5}$  M li (1 litr eritma tarkibida 0.0000195 mol rux ionlari mavjud) eritmada yoki  $1.275 \times 10^{-4}$  % li (1 litr eritma tarkibida 0.001275 gr rux ioni mavjud) eritmada rux ionini miqdoriy analiz qilish imkoniyatini beradi.

ISE ning xarakterlovchi asosiy ko'rsatkichlaridan yana biri bu uning *elektrod funksiyasining tikligi (qiyaligi)* dir (5-rasm).



**5-rasm. Ishlab chiqilgan rux va mis selektiv elektrodning elektrod funksiyasining qiyaligi**

Elektrod funksiyasining qiyaligi rux selektiv elektrod uchun 85.56% va mis selektiv elektrod uchun 90.11% ni tashkil etishi aniqlandi.

Ionselektiv elektrodlar signalining vaqtga bo'g'liqlik ko'rsatkichlari o'rganildi 3- jadval. Ishlab chiqilgan elektrodlar uchun signalning boshlanish vaqti 15-19 s, doimiy vaqt 32-41 s dan oshmaydi va ko'rsatkichlarni belgilash vaqti 53-64 s, jami

o'lchash vaqti 74-87 s ga yetadi. Bu esa ishlab chiqilgan elektrodlardan eritmalarning tezkor nazorati uchun qo'llash imkoniyati mavjudligini tasdiqlaydi.


### 3-jadval

#### Ishlab chiqilgan ionselektiv elektrodning dinamik xususiyatlari ( $C_{ion}=10^{-2}$ mol/l)

ISE	ISE ning dinamik ko'rsatkichi, soniya			
	$t_0$ -tasirning boshlanish vaqti	$t_{o'rtacha}$ - o'rtacha vaqt	$t_{qayd}$ vaqti- ko'rsatkichlarni qayt qilish vaqti	$t_{umumiy}$ -jami kutilgan vaqt
Zn-ISE	15±0,1	32±0,3	53±0,4	74±0,3
Cu-ISE	19±0,1	41±0,2	64±0,3	87±0,3

**Elektrodning ishlash muddati** - ISE ning ishlash muddatini aniqlashda turli konsentratsiyali  $CuCl_2$  eritmalarining potentsiallaridagi o'zgarishlarni davriy vaqt oraliqlarida va umumiy 1,5 oy davomida o'chlanib, qayd qilib borildi. Bu vaqt oralig'ida elektrod funksiyasining qiyaligi  $Cu^{2+}$  uchun  $10^{-4}$  mol/l konsentratsiyali eritmalarda 463.8 mV/pC dan 459.7 mV/pC gacha kamaydi va boshqa konsentratsiyali eritmalar uchun konsentratsiyaga bo'g'liq ravishda 1.4-4.3 mV/pC o'zgarishi qayd qilindi.

**Takrorlanuvchanlik va barqarorlik** - elektrod sezgir membrana sifatida qo'llaniladigan materiallarni baholovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. ISE lar signalini takrorlanuvchanligi tarkibida  $10^{-2}$  mol/l rux va  $10^{-2}$  mol/l konsentratsiyali mis ionlarini bo'lgan eritmalar to'ldirilgan yacheykalarga tekshiriladigan elektrodni besh marta takroran kiritilishi bilan o'lchandi, tajribalar 5 soat davomida 60 minut vaqt oralig'ida olib borildi va olingan natijalar asosida elektrodning barqaror ishlashi qayd qilindi (6-rasm).




6-rasm. Cu-ISE signalining takrorlanuvchanlik natijalari


«Oksalat kislota, fosfat kislota, nitrat kislota, 2-xlor etil fosfat kislota, monoetanolin, rux kuporosi, mis kuporosi va atsetamipridan iborat suvli sistemalar tadqiqoti va insektitsid xossaga ega bo'lgan fiziologik faol

**moddalarning olinish texnologiyasini ishlab chiqish»** deb nomlangan to'rtinchi bobda komponentlarning o'zaro tasirlashishi keng konsentratsiya va harorat oralig'ida eruvchanligi o'rganilgan va diagrammalari qurilgan. Tadqiqotlar natijasida insektitsid xossaga ega bo'lgan, fiziologik faol moddalar olishning prinsipial texnologik sxemasi, moddiy balansi va texnologik jarayonlar natijalari keltirilgan.

Dastlab atsetamipridning suvda eruvchanligi yomonligi sababli [10%  $C_{10}H_{11}ClN_4$ + 90%  $C_2H_5OH$ ] tarkibli atsetamipridning etanoldagi eritmasi tanlab olindi va binar sistemasi o'rganildi 7-rasm, hamda fazalaradan namunalar olinib tarkibi NMR spektroskopiyasi yordamida tahlil qilindi va atsetamipridga mos kelishi tasdiqlandi 8-rasm.



**7-rasm. [10%  $C_{10}H_{11}ClN_4$ + 90%  $C_2H_5OH$ ] –  $H_2O$  eruvchanlik diagrammasi**




**8-rasm. Atsetamiprid fazasidan ajratilgan namunaning  $C^{13}$  spektori**

Tarkibida oksalat kislota, fosfat kislota, nitrat kislota, 2-xlor etil fosfanat kislota, monoetanolin, rux kuporosi, mis kuporosi, etanol va atsetamipridan iborat komponentlar asosida to'qqizta politermik eruvchanlik sistemalari o'rganildi va diagrammalari qurildi.

$HNO_3 \cdot CO(NH_2)_2 - NH_2C_2H_4OH - H_2O$  eruvchanlik sistemasi  $-57.8$  °C dan  $-1.6$  °C harorat oralig'ida o'rganildi va binar sistemalar va ettita ichki kesmalar

asosida politermik diagrammasi qurildi. Diagrammada muzning, ikki-, bir- va suvsiz monoetanolamining, nitrat karbamidning hamda yangi faza  $\text{HNO}_3 \cdot \text{CO}(\text{NH}_2)_2 \cdot \text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{OH}$  ning kristallanish maydonlari chegaralari aniqlandi.

$\text{H}_5\text{CN}_3\text{O}_4 \cdot \text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2 - [10\% \text{C}_{10}\text{H}_{11}\text{ClN}_4 + 90\% \text{C}_2\text{H}_5\text{OH}] - \text{H}_2\text{O}$  sistemasi o'n bitta ichki kesmalar va ikkilik tizimlari yordamida  $-42^\circ\text{C}$  dan  $13^\circ\text{C}$  oralig'ida eruvchanligi o'rganildi va politermik diagrammasi qurildi 9-rasm. Diagrammada muzning, atsetamipridning, karbamidning va nitrat karbamidmonoetanolammoniyning kristallanish sohalari ajratildi. Diagrammada fazalar bitta uchlamchi nuqtada tutashadi.




**9-rasm.  $\text{H}_5\text{CN}_3\text{O}_4 \cdot \text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2 - [10\% \text{C}_{10}\text{H}_{11}\text{ClN}_4 + 90\% \text{C}_2\text{H}_5\text{OH}] - \text{H}_2\text{O}$  sistemaning politermik eruvchanlik diagrammasi**

$\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O} - \text{H}_5\text{CN}_3\text{O}_4 \cdot \text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2 - \text{H}_2\text{O}$  sistemasi o'nta ichki kesmalar va dastlabk moddalarning binar tizimlari yordamida  $-33^\circ\text{C}$  dan  $12^\circ\text{C}$  oralig'ida o'rganildi va politermik eruvchanlik diagrammasi qurildi 10-rasm. Diagrammada muzning, karbamidning, nitrat karbamidmonoetanolammoniyning va mis kuparosning kristallanish maydonlari chegaralari aniqlandi.

$\text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O} - \text{H}_5\text{CN}_3\text{O}_4 \cdot \text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2 - \text{H}_2\text{O}$  eruvchanlik sistemasi 11 ta ichki kesmalar va ikkilik sistemalar yordamida  $-39.0$  dan  $12.0^\circ\text{C}$  oralig'ida o'rganildi va politermik eruvchanlik diagrammasi qurildi 11-rasm. Ichki chizmalar I-VI kesmalar  $\text{H}_5\text{CN}_3\text{O}_4 \cdot \text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2$  tomonidan  $\text{ZnSO}_4$  uchiga, VII-XI kesmalar  $\text{ZnSO}_4$  tomonidan  $\text{H}_5\text{CN}_3\text{O}_4 \cdot \text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2$  uchiga o'tkazib tadqiq qilindi. Ushbu sistemani o'rganish davomida muzning, rux sulfatning, karbamidning va nitrat karbamidmonoetanolammoniyning kristallanish sohalari ajratildi. Diagrammadagi barcha fazalar bitta uchlamchi nuqtada tutashishi aniqlandi.



karbamidmonoetanolammoniy qo‘shib borish tartibida eritmaning pH, nur sindirish ko‘rsatkichi, zichligi, eritmaning qovushqoqligi va kristallanish haroratlari aniqlandi 12-rasm.



**12-rasm. 25°C haroratda [20% CuSO<sub>4</sub>·5H<sub>2</sub>O + 80% H<sub>2</sub>O] - H<sub>5</sub>CN<sub>3</sub>O<sub>4</sub> · HOCH<sub>2</sub>CH<sub>2</sub>NH<sub>2</sub> sistemasining “tarkib-xossa” diagrammasi:**

1- pH, 2-nur sindirish ko‘rsatkich, 3-zichlik, 4-qovushqoqlik

[20% ZnSO<sub>4</sub>·7H<sub>2</sub>O + 80% H<sub>2</sub>O] - H<sub>5</sub>CN<sub>3</sub>O<sub>4</sub> · HOCH<sub>2</sub>CH<sub>2</sub>NH<sub>2</sub> sistemasida komponentlarni o‘zaro ta‘sirlashishini fizik-kimyoviy asoslash maqsadida rux kuporosining 20% li eritmasiga bosqichma-bosqich nitrat karbamidmonoetanolammoniy qo‘shib borish tartibida nur sindirish ko‘rsatkichi, zichlik, qovushqoqlik, pH ko‘rsatkichi va kristallanish haroratlari o‘rganildi 4-jadval.

**4-jadval**

**[20% ZnSO<sub>4</sub>·7H<sub>2</sub>O + 80% H<sub>2</sub>O] - H<sub>5</sub>CN<sub>3</sub>O<sub>4</sub> · HOCH<sub>2</sub>CH<sub>2</sub>NH<sub>2</sub> sistemasining fizik-kimyoviy xossalari**

20% ZnSO <sub>4</sub> ·7H <sub>2</sub> O + 80% H <sub>2</sub> O	H <sub>5</sub> CN <sub>3</sub> O <sub>4</sub> · HOCH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> NH <sub>2</sub>	Kris. T°C	Zichlik g/sm <sup>3</sup>	Nur sindirish ko‘rsatkichi	Qovushqoqlik mm <sup>2</sup> /c	pH
100	--	-2.0	1.1985	1.3691	1.4721	4.34
98.38	1.62	-2.5	1.1998	1.3705	1.4819	4.58
95.59	4.41	-3.5	1.2031	1.3723	1.5027	4,69
92.60	7.40	-4.5	1.2082	1.3754	1.5412	4.76
89.02	10.98	-6.0	1.2136	1.3775	1.5951	4.85
85.81	14.19	-7.5	1.2183	1.3795	1.6296	4.93
83.04	16.96	-8.0	1.2234	1.3812	1.6548	5.01
79.57	20.43	-9.0	1.2289	1.3829	1.7223	5.16
76.11	23.89	-10.0	1.2349	1.3865	1,7829	5.28
72.94	27.06	-11.0	1.2407	1.3902	1.8306	5.40
69.89	30.11	-11.0	1.2468	1.3997	1.9715	5.51

Olib borilgan tadqiqotlardan eruvchanlik sistemalari, tarkib-xossa diagrammalari, fizik-kimyoviy va texnologik ko'rsatkichlar, hamda agrokimyoviy sinov natijalari asosida quyidagi ikkita preparat tarkibi taklif etildi.


1.  $[6\% \text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O} + 0.6\% \text{H}_5\text{CN}_3\text{O}_4 \cdot \text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2 + 83.4\% \text{H}_2\text{O} + 1\% \text{C}_{10}\text{H}_{11}\text{ClN}_4 + 9\% \text{C}_2\text{H}_5\text{OH}]$

2.  $[5\% \text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O} + 0.6\% \text{H}_5\text{CN}_3\text{O}_4 \cdot \text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2 + 84.4\% \text{H}_2\text{O} + 1\% \text{C}_{10}\text{H}_{11}\text{ClN}_4 + 9\% \text{C}_2\text{H}_5\text{OH}]$

Preparatlar olishning asosiy texnologik jarayonlari quyidagi bosqichlardan iborat:

- reaktorda 75.4% nitrat karbamidmonoetanolammoniy eritmasini tayyorlash;
- asetamidridni etanolda eritish;
- mis sulfat pentagidrat yoki rux sulfat geptatagidratni eritish va 20% li eritmasini tayyorlash;
- eritmaga 75.4% nitrat karbamidmonoetanolammoniy eritmasini va asetamidridni etanoldagi eritmasini (yoki mospilan) qo'shish;
- hosil bo'lgan mahsulotni quyish va qadoqlash.

Ushbu insektitsid xossasiga ega bo'lgan fiziologik faol preparat olishning prinsipial texnologik sxemasi 13-rasmda ko'rsatilgan.



**13-rasm. Mis sulfat pentagidrat, rux sulfat geptatagidrat, nitrat karbamidmonoetanolammoniy, etanol va asetamidrid asosida preparatlar olishning prinsipial texnologik sxemasi:**

1,11,18-reaktor; 2,3,4,10, 19-suyuqlik sarf o'lichagich; 6, 13,15,20-qattiq modda uchun bunker; 5-transporter; 7,12-lentali o'lchov dozatori; 8,17 – yig'uvchi bak; 9,16-markazdan qochma nasos; 14,21-massa dozatori; 22-qadoqlash uskunasi; 23-meyorlagich (vintel).

Taklif etilgan preparatlar kattalashtirilgan laboratoriya sharoitida tajriba namunalari ishlab chiqarildi va agrokimyoviy sinovlardan o'tkazilib, samarali natijalar olindi.

## XULOSA

1. Rux, mis ionlari va tetrafenil borat asosida elektrod faol birikmalar  $Zn[B(C_6H_5)_4]_2$  va  $Cu[B(C_6H_5)_4]_2$  sintez qilindi va mavjudligi fizik-kimyoviy usullar yordamida tasdiqlandi. Ion-selektiv elektrodlar ishlab chiqarishda maqbul membranalar tarkibi 32% polivinil xlorid kukuni, 5% ionofor va 63% plastifikator tetragidrofuran (TGF) tanlandi, hamda ushbu membranalar asosida yaratilgan elektrodlar yuqori selektivlik namoyish etishi aniqlandi.

2. Zn-ISE va Cu-ISE larning signal uzatish qobiliyati eritmada aniqlanadigan ion konsentratsiyasiga bog'liqligi o'rganildi. Ushbu ion selektiv elektrodlar  $10^{-1}$ - $10^{-4.7}$  va  $10^{-1}$ - $10^{-4.8}$  mol/l konsentratsiya oralig'ida signallarni uzata oladi, hamda eritmada rux va mis ionlariga selektivlik namoyon qiladi.

3. Rux va mis ion selektiv elektrodlar uchun tegishli tartibda elektrokimyoviy ko'rsatkichlar - elektrod funksiyasining intervali  $pC=1-4.7$  mol/l va  $1-4.8$  mol/l ni, elektrod funksiyasining qiyalik foizi 85.56% va 90.11% ni, signal dinamikasi (javob vaqti) -  $1 \times 10^{-2}$  mol/l konsentratsiyali eritma uchun umumiy o'lchash vaqti 74 va 87 sekundan oshmasligi aniqlandi.

4. Mis kuporos, rux kuporos, oksalat kislota, karbamid, oksalat monoetanolammoniy, fosfat karbamidmonoetanolammoniy, nitrat karbamidmonoetanolammoniy, atsetamiprid va etanoldan iborat 16 ta ikki, uch va ko'p komponentli suvli sistemalarda komponentlarning o'zaro ta'sirlashuvi bo'yicha ilmiy ma'lumotlar olingan. Oksalat monoetanolammoniy ( $HOOC-COOH \cdot NH_2C_2H_4OH$ ) va oksalat karbamidmonoetanolammoniyning ( $CO(NH_2)_2 \cdot H_2C_2O_4 \cdot NH_2C_2H_4OH$ ) yangi birikmalarning hosil bo'lish maydonlari aniqlangan va mavjudligi fizik-kimyoviy taxlil usullari yordamida isbotlangan.

5. Atsetamipridning etanolda eruvchanligi o'rganildi va [10%  $C_{10}H_{11}ClN_4$  + 90%  $C_2H_5OH$ ] eritmasi tanlab olindi. Atsetamipridning etanoldagi eritmasi va suvdan iborat ikkilik sistemasi o'rganilib, diagrammasi qurildi. Diagrammada evtektik nuqta  $-1.9$  °C haroratni tashkil etib, muz va atsetamiprid fazalariga ajraladi. Ushbu evtektik nuqta 1.8% [10%  $C_{10}H_{11}ClN_4$  + 90%  $C_2H_5OH$ ] va 98.2% suvga mos keladi. Diagrammada hosil bo'lgan fazalarning turli nuqtalaridan namunalari olingan va NMR spektroskopiyasi usuli yordamida mavjudligi isbotlangan.

6. Mis kuporos, rux kuporos, nitrat karbamidmonoetanolammoniy, atsetamiprid va etanollar asosida eritmaning zichlik, qovushqoqlik, sindirish ko'rsatkichi, pH ko'rsatkichlari o'zgarishi komponentlar nisbatiga bog'lab o'rganilgan va natijalar asosida 2 ta preparat tarkibi taklif etilgan. Ushbu preparatlarni olish prinsiplar texnologik sxemasi ishlab chiqilgan va texnologik ko'rsatkichlari aniqlangan. Taklif etilgan yangi tarkibli preparatlarni olish texnologiyasi kattalashtirilgan laboratoriya qurilmasida sinovdan o'tkazilgan va preparatlarning tajriba namunalari ishlab chiqarilgan.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.K.02.05 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ  
ШАРОФА РАШИДОВА**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ  
ШАРОФА РАШИДОВА  
ИНСТИТУТ ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ АКАДЕМИИ  
НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**АХМЕДОВ БАХТИЁР БОХОДИР УГЛИ**

**РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ ОПЕРАТИВНОГО КОНТРОЛЯ И  
ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ФИЗИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ  
ВЕЩЕСТВ С ИНСЕКТИЦИДНЫМИ СВОЙСТВАМИ НА ОСНОВЕ  
ЦИНКА, МЕДИ, АЦЕТАМИПРИДА**

**02.00.02 – Аналитическая химия**

**02.00.13 –Технология неорганических веществ и материалов на их основе**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/K759.

Диссертация выполнена в Самаркандском Государственном университете и в Институте общей и неорганической химии Академии наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Абдурахманов Илхом Эргашбоевич**  
доктор химических наук, доцент

**Шукуров Жамшид Султонович**  
доктор технических наук, старший научный сотрудник

**Официалны оппоненты:**

**Тогашаров Ахат Салимович**  
доктор технических наук, профессор

**Рахматов Худоёр Бобониезович**  
кандидат химических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится «30» октябрь 2024 г., в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.K.02.05 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова по адресу: 140104, Самарканд, Университетский бульвар, 15, Институт Биохимии, Химический корпус, 220 кабинет. Тел.: (+99866) 239-12-47, (факс: (0366) 239-11-40; E-mail: [devonxona@samdu.uz](mailto:devonxona@samdu.uz)).

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова за № 95, с которой можно ознакомиться в ИРЦ (Фундаментальная библиотека СамГУ). Тел.: (+99866) 239-11-51.

Автореферат диссертации разослан «14» октябрь 2024 г.  
(реестр протокола рассылки № 1 от «14» октябрь 2024 г.)



**А.М.Насимов**  
Председатель разового научного по  
присуждению ученой степени, совета,  
д.т.н., профессор

**Ж.Р.Узоков**  
Ученый секретарь разового научного  
совета по присуждению ученой  
степени, PhD

**Э.Абдурахмонов**  
Заместитель председатель разового  
научного семинара при научном совете  
по присуждению учёных степеней  
д.х.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность темы диссертации.** На повышение урожайности сельскохозяйственных культур негативно влияют такие обстоятельства, как нехватка воды, засухи, размножение различных вредителей, возникающие на земле в связи с изменением климата-при обеспечении качественными продуктами питания большого числа населения мира. Поэтому особое место в повышении урожайности сельскохозяйственных культур занимает применение новых видов препаратов, обладающих одновременно физиологически активными, питательными и инсектицидными свойствами, сохраняющими в своем составе микроэлемент. Здесь важное значение приобретает получение новых видов физиологически активных препаратов, обладающих инсектицидными свойствами, состоящих из микроэлементов и питательных веществ цинка, меди, а также интенсивное выявление содержащихся в них ионов цинка и меди.

Ведущие мировые научные центры проводят ряд научных исследований по разработке эффективного способа получения новых видов стимуляторов, инсектицидов и удобрений, а также по созданию высокоэффективных электродно-активных соединений (ЭФБ) неорганических ионов для ИСЭ. В связи с этим, разработал технологию получения физиологически активных препаратов, состоящих из микроэлементов цинка и меди, обладающих инсектицидными свойствами, для определения их эффективности в сельскохозяйственных культурах, а также ионно-селективных электродов, обладающих высокой точностью и чувствительностью, способных передавать сигналы при очень малых концентрациях ионов в растворе, способных работать даже в широком диапазоне рН, и ионно-селективных электродов. особое внимание уделяется разработке ионно-селективных электродов из пластифицированных мембранных металлов меди, цинка.

В нашей республике достигаются определенные результаты по получению и эффективному применению стимуляторов и дефолиантов, обладающих инсектицидными свойствами, а также по определению катионов металлов в растворе. В частности, можно выделить стимуляторы “Ҳосил”, “Нажот”, “Мадад”, а также ионные электроды с фосфорномолибденом. 22-я цель постановления Республики Узбекистан «О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы» - «Обеспечить стабильность национальной экономики и увеличить долю промышленности в валовом внутреннем продукте...» поставлены важные задачи. В связи с этим важное значение приобретает получение физиологически активных препаратов, обладающих инсектицидными свойствами, содержащих микроэлементы цинка и меди, и разработка новых типов электродов для обнаружения ионов металлов в растворе.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового

Узбекистана на 2022-2026 годы»<sup>1</sup> «Продолжение промышленной политики, направленной на обеспечение стабильности национальной экономики и увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, увеличение объемов производства промышленной продукции», от 13.02.2021 г. № ПП-4992 «О мерах по дальнейшему реформированию и финансовому оздоровлению предприятий химической промышленности, развитию производства химической продукции с высокой добавленной стоимостью», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии Республики.** Республика науки и техники. Диссертационная работа выполнялась в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и техники в республике: VII Химическая технология и нанотехнологии.

**Степень изученности проблемы.** В научной литературе широко освещаются данные о получении на основе неорганических и органических веществ удобрений, стимуляторов и дефолиантов, обладающих инсектицидными свойствами, их применении. Ученые нашей Республики: М.Н. Набиев, С. Тухтаев, Х. Кучаров, М.К. Аскарлова, З. Исабаев, А.С. Тогашаров, Ж.С. Шукуров о взаимодействии компонентов в системах растворимости, ученые мира: Ч.С. Уильямс, Дж.С. Саттл (США), Ф.Р.Н. Каттерман (США), В.С. Холл (Англия) провели ряд научных исследований по получению препаратов на основе органических веществ и созданию технологий их производства.

